



BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI  
(TURLARI BO'YICHA)

Toshkent arxitektura-qurilish  
instituti huzuridagi tarmoq markazi

**QURILISH  
KONSTRUKSIYALARINI  
LOYIHALASHNI  
AVTOMATLASHTIRISH**

**TOSHKENT-2022**

*Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 degabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.*

**Tuzuvchilar:** TAQI, f.-m. f. n., dots. Matkarimov S.Yu.

**Taqrizchi:** t.f.d.,prof.Ye.V.Щipachyova

*O'quv -uslubiy majmua TAQI Kengashining 2020 yil 11 dekabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>18</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>37</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>103</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>109</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>110</b>

# I. IShChI DASTUR

## Kirish

Ishchi dastur oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur mazmunida xorij ta'lim tajribasi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Ishchi dastur mazmuni oliy ta'limning maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, kompyuter dasturlari asosida hisoblash texnologiyasi usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish, qurilish konstruksiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hisoblash va loyihalash texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bilan bog'liq kompetensiyalarga ega bo'lishlari ta'minlaydi.

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni **“Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish”** modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ilg'or g'oyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**“Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish”** modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini bino, inshoot va mashina mexanizmlarini ustivorlikka, mustahkamlikka va bikrlikka hisoblashda, konstruksiya elementlariga kesim yuzalar tanlash va ularni loyihalashda zamonoviy usullardan samarali foydalanish haqidagi bilimlarini takomillashtirish, loyihalash jarayoni kompyuter modelini tuzish va ularni yechish ko'nikmasiga ega bo'lish, shu bilan birga standart dasturlardan foydalanib masalalarini yechish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, kompyuterda loyihalashning usullari, vositalari va imkoniyatlari bilan tanishtirish va bilimlarini takomillashtirishga qaratilgan.

### Modulning vazifalari:

- qurilish konstruksiyalarga elementlar tanlash jarayonini avtomatlashtirilgan holda bajarishni o'rgatish va amalga oshirish;
- po'lat va temirbeton konstruksiyalariga kesim yuza tanlash va ularni tekshirish, shu jarayon natijasi asosida kolonna va balkalarning ishchi chizmalarini yaratish;
- bino va qurilish inshootlarining loyihalarini va konstruktorlik hujjatlarni ishlash jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, loyihalash usullarining o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.
- ko'pincha ishlatiladigan kompyuter programmalari va avtomatlashtirilgan loyixalash tizimlari bilan nazariy va amaliy tanishtirish;
- arxitektura va qurilish loyihalarni kompyuter texnikasi vositalari bilan amalda bajarish, LIRA-SAPR, SAPFIR va kompyuter grafikasiga mo'ljallangan yangi kompyuter dasturlari bilan tanishtirish;
- tinglovchilarni kompyuter dasturlaridan foydalangan holda bakalavriaturada o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, tahlil etish, o'qitish texnologiyasi va malakalarini shakllantirishdan iborat.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**“Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish”** modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

#### **Tinglovchi:**

- ta'limni axborotlashtirish texnologiyalarini;
- qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash fanlarini o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni;
- qurilish konstruksiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash uslublarini, texnologiyalarini, kompleks dasturlarini, avtomatlashtirilgan loyihalash nazariyasini, loyihalash texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini;
- qurilish konstruksiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalashni, joy sharoitidan kelib chiqib loyiha yechimlarini to'g'ri tanlay olishni va tanlangan loyiha yechimlarini baholay olishni **bilishi** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni tadbiq etishning samarali shakllaridan foydalanish;
- xorijiy tildagi manbalardan pedagogik faoliyatda foydalana olish;
- elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishi hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ongli ehtiyojni shakllantirish;
- bino va inshoot konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda axborot

kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olish;

- O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- bino va inshoot konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda kompyuter texnologiyalari qo'llash;

- bino va inshoot konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda kompyuter texnologiyalari qo'llashni o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;

- kommunikativ vazifalarni hal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish;

- loyihalash jarayonining kompyuter modelini tuzish va ularni yechish;

- konstruksiyaning kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini kompyuterda aniqlash, tahlil etish, konstruksiya elementlariga kesim tanlash va ularni tekshirish;

- mutaxassislik masalalarini yechishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;

- kommunikativ vazifalarni hal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- bino va inshoot konstruksiyalarini avtomatlashtirilgan holda loyihalash;

- bino va inshoot konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;

- bino va inshoot konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda ishlatiladigan dasturiy ta'minotlarni qo'llash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

**“Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish”** moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkaziladi;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o'quv rejadagi “Binolarning energiya samaradorligini

oshirish masalalari”, “Milliy qurilish norma va qoidalari” modullari bilan uzviy bogʻlangan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy taʼlimdagi oʻrni**

Modul oliy taʼlim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganishlari hamda zamonaviy talim texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha malaka va koʻnikmalarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Modulni oʻzlashtirish orqali tinglovchilar kompyuter dasturlaridan foydalanib hisoblash va loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishga doir kasbiy kompetentlikka ega boʻladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul birligi nomi	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriyadagi o'quv yuklamasi		
			Jami	Jumladan:	
				Nazariy	Amaliy
1.	Yangi hujjat, bino, qavat yaratish	2	2	2	
2.	Konstruksiya elementlarini yaratish	2	2	2	
3.	SAPFIR–JBK tizimi yordamida monolit ustunlar va to'sinlarni konstruksiyalash masalasini yaratish	2	2		2
4.	Vertikal elementlarni markalash rejasini yaratish	2	2		2
5.	Bir xillashtirilgan yaxlit temirbeton ustunlarni konstruksiyalash	2	2		2
6.	To'sinlarni avtomatik konstruksiyalashga tuzatishlar kiritish	2	2		2
7.	SAPFIR-JBK tizimi yordamida temirbeton diafragmani loyihalash masalasini yaratish	2	2		2
8.	Tuynukli diafragmani avtomatik tarzda konstruksiyalash	2	2		2
9.	Diafragma qirqimi bilan ishlash	2	2		2
10.	Armaturalashning tugunlarini yaratish				
<b>Jami:</b>		<b>16</b>	<b>16</b>	<b>8</b>	<b>8</b>

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: Yangi hujjat, bino, qavat yaratish

Yangi hujjat yaratishning umumiy usuli. Koordinata o'qlari. Konstruksiya elementlarini yaratish. SAPFIR dasturida ishlash rejimlari. Stena uskunasi. O'q chizig'ini yaratish jarayonida yoy aylanasi qurish.

#### 2-mavzu: Konstruksiya elementlarini yaratish

Okno buyrug'i bilan ishlash. Deraza o'rni turi, to'ldirilish usulini, o'lchamlari va boshqa ko'rsatkichlarini sozlash. Plita (Perekrytie) buyrug'i bilan ishlash. Qavat rejasini. Loyiha ustidagi amallarni rejada bajarish. Qavatlarini takrorlash.

### AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI



## **1-amaliy mashg'ulot: SAPFIR–JBK tizimi yordamida monolit ustunlar va to'sinlarni konstruksiyalash masalasini yaratish**

Armaturalar tanlash hamda ustun va to'sinlarni konstruksiyalash uchun zaruriy ma'lumotlar minimumini tavsiflash. VIZOR–SAPR tizimida bajarilgan armatura tanlash natijalarini SAPFIR – JBK tizimiga import qilish jarayoni ko'rsatib berish. Ustunlarni bir xillashtirishni bajarish jarayoni texnologiyasini bajarish.

## **2-amaliy mashg'ulot: Vertikal elementlarni markalash rejasini yaratish**

Ustunlar markalari uchun o'lchamlar va vynoskalarni yaratish. Ustunlarni armaturalash haqidagi ma'lumotlarni tasvirlash. Qirqimni yaratish. Markalash rejasi va qirqimlar tasvirlangan chizma varag'ini yaratish. Chizma varag'iga spetsifikatsiyani qo'shish.

## **3–amaliy mashg'ulot. Bir xillashtirilgan yaxlit temirbeton ustunlarni konstruksiyalash**

Ustunlarni armaturalash modelini yaratish. Ustunni armaturalarlash modelini chizmada joylashtirish. Konstruksiyalashdan diametrlarni chiqarib tashlash. Bir xillashtirilgan guruhlarni yaratish. BM–1 markasi uchun armaturalash modelini yaratish. Ikki oraliqli to'sinlar uchun bir xillashtirilgan guruhlarni yaratish.

## **4-amaliy mashg'ulot. To'sinlarni avtomatik konstruksiyalashga tuzatishlar kiritish**

Armaturalash modeliga tuzatishlar kiritish. Spetsifikatsiya bo'yicha joylashuvlarni yangilash. To'sinlar qirqimida markalarni yangilash. To'sin uchun chizma varag'ini yaratish.

## **5-amaliy mashg'ulot. SAPFIR-JBK tizimi yordamida temirbeton diafragmani loyihalash masalasini yaratish**

Difragmaga armatura tanlashni amalga oshirishda minimal zaruriy ma'lumotlarni tasvirlash. Armaturalash natijalarini import qilish. Diafragmani avtomatik rejimda loyihalash. Diafragmada sterjenlarni avtomatik terib qo'yishni tahrirlash texnologiyasini ko'rsatib berish.

## **6-amaliy mashg'ulot. Tuynukli diafragmani avtomatik tarzda konstruksiyalash.**

Tuynukli diafragmaga bir xillashtirilgan guruh tayinlash. Armaturalashning yangi zonasini yaratish. Yaratilgan zonalarining joylashishini o'zgartirish.

Armaturalash zonasining diametrini moslashtirish. Armaturalash zonasining diametrini tahrirlash. Tuynukni hoshiyalash. Tuynukni hoshiyalash elementlarini markalash.

### **7 – amaliy mashg‘ulot. Diafragma qirqimi bilan ishlash.**

DJ\_2 diafragmaning qirqimini yaratish. Sterjenlarni o‘rnatishni tahrirlash. O‘lchamlar zanjirini yaratish. Qirqimda elementlarni markalash.

### **8 – amaliy mashg‘ulot. Armaturalashning tugunlarini yaratish.**

Qavat rejasida armaturalarni tasvirlash. Armaturalashning tugunlarini yaratish. Armaturalash zonalarini tahrirlash. Detallarni yaratish. Ko‘rinish tarhini tahrirlash. Armaturalashning tugunini izohlash. Armaturalashning tuguni o‘lchamlarini yaratish. Loyihalangan diafragmalarni armaturalashning 3D ko‘rinishi. Avtomatik rejimda chizmalar yaratish.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Lira dasturi majmuasi tizimining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Lira-SAPR dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning kuchli tomonlari	Konstruksiyalarga elementlar tanlashi. Po‘lat va temirbeton konstruksiyalariga kesim tanlash va ularni tekshirish, shu jarayon natijasi asosida ustun va to‘sinlarning ishchi chizmalarini yaratib berishi
<b>W</b>	Lira-SAPR dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Plitalarni armaturalashda avtomatik ravishda chizmalarni yaratib bera olmasligi
<b>O</b>	Lira-SAPR dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Yuklama va kuchlanishlarni bog‘liq holda aniqlab beradi.
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi)	Lira dasturi majmuasi tizimining xarid bahosi

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining yechimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo’llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Og’ir sanoat loyiha instituti muhandislari Termez shaxridagi stadion loyihasini bajarish byurmasini bajarish jarayonida yoritish tizimining minorasini oddiy muhandislik hisobini bajarish ko’p vaqt sarfiga olib keldi va fazoviy hisobini bajarish mumkin emasligi ma’lum bo’ldi. Hisoblash loyihalashni kompyuter dasturi asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topishdi. Ya’ni ilova hisoblash talabga javob bermadi.

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhlarda).

- Kompyuter dasturi asosida hisoblash va loyihalash ketma-ketligini belgilang (jufliklardagi ish).

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya tinglovchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so’rashda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- tinglovchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- tinglovchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili tinglovchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Fikr:** "Lira dastur majmuasi qurilish sohasida keng qo'llaniladigan va chekli elementlar usuliga asoslangan tizimlardan biridir".

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### **"Tushunchalar tahlili" metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir tinglovchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

## «Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи тингловчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни тарқатади;



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказдилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқунланади.

Dasturiy ta'minotlar					
Lira-SAPR		STAAD		NASTRAN	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?</b>	<b>Qo'shimcha ma'lumot</b>
Doimiy yuk	Domiy yuklarga konstruksiyalarning xususiy og'irligi, gruntning bosimi va og'irligi, konstruksiyadagi dastlabki kuchlanishning ta'siri kiradi.	
ARM-SAPR	armaturalash sistemasi	
Plastik deformatsiya	Betonning ko'p karrali yuklanishi va yukdan bo'shalishi holatida eep ham hisobga olinadi. ep – yuk to'liq olingandan so'ng elastik qaytish deformatsiyasi	
Monolit beton	Yaxlit beton.	
Mustahkamlikka hisoblash	Mustahkamlikka hisoblash. Birinchi chegaraviy holat bo'yicha hisoblash	
Engil beton	Engil beton (sementli bog'lovchi va g'ovak to'ldiruvchilardan tashkil topgan) bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi va ko'tarmaydigan konstruksiyalarida ishlatiladi	
Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiya	Oldindan zo'riqtirilgan temirbetonning afzalliklaridan biri uni yorilishga bo'lgan bardoshlilikidir.	
Elastiklik moduli	Armaturalarning elastiklik xususiyati elastik moduli bilan xarakterlanadi va u 0,15 dan 0,4 gacha oraliqda bo'ladi.	
Chegaraviy holat	Konstruksiyaning qo'yilgan talablarga javob bera olmay qolgan holati	

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


### **Venn Diagrammasi metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- tinglovchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda tinglovchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar. Qurilish konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashni avtomatlashtirilgan tizimlari



### “Blits-o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab tinglovchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya‘ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, tinglovchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi tinglovchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.



4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Tinglovchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«Lira dastur majmuasida hisob sxemasini yaratish» ketma-ketligini joylashtiring.

O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

<b>Harakatlar mazmuni</b>	<b>Yakka baho</b>	<b>Yakka xato</b>	<b>To‘g‘ri javob</b>	<b>Guruh bahosi</b>	<b>Guruh xatosi</b>
Konstruksiya elementlarining geometrik sxemasini tuzish;					
Tayanch bog‘lanishlarini kiritish;					
Model muhitini berish.					
Yuklamalarni qo‘yish;					

### III. NAZARIY MATERIALLAR


#### 1- mavzu: Yangi hujjat, bino, qavat yaratish Reja:

1. Binoni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalar: [Yangi hujjat, bino, qavat yaratish. Koordinata o'qlari. Kontruksiya elementlarini yaratish. Qavat rejasini yaratish. Qavatlarni takrorlash.](#)

2. SAPFIR-JBK tizimi yordamida monolit ustunlar va to'sinlarni konstruksiyalash: Armaturalar tanlash hamda ustun va to'sinlarni konstruksiyalash uchun zaruriy ma'lumotlar minimumi. Armaturalash natijalarini import qilish.

3. Ustunlarni bir xillashtirish. Vertikal elementlarni markalash rejasini yaratish. Vertikal elementlarni markalash qirqimini yaratish. Markalash rejasini va qirqimlar tasvirlangan chizma varag'ini yaratish. Bir xillashtirilgan yaxlit temirbeton ustunlarni konstruksiyalash. To'sinlarni bir xillashtirish.

Dastur yuklanganidan keyin avtomatik ravishda yangi bo'sh hujjat (fayl) yaratiladi. Yangi hujjat yaratishning umumiy usuli **Fayl/Новый** buyrug'idan foydalanish. Ushbu buyruq bajarilganda dastur yangi hujjat yaratadi va uning uchun uch o'lchamli grafik oyna ochiladi.



Huddi shunday effektga ega bo'lish uchun **Новый** piktogramma yordamidan foydalanish mumkin. Grafik oynada uch o'lchamli fazoviy maydonning istalgan proeksiyasini ko'rish mumkin. Modellashtirish amalga oshiriladigan uch o'lchamli fazoviy maydon kompyuter grafikasida "ssena" (saxna) deb nomlanadi. Grafik oynada metrik to'rni va koordinata boshida joylashgan uch o'lchamli o'qlar - "fazoviy reper" ni ko'rishimiz mumkin. Istalgan ob'ektni yaratish uchun

menyuning **Sozdat** buyrug‘idan “Lenta” stilidagi interfeysdagi **Sozdanie** yorlig‘idan foydalanish mumkin.



Yangi hujjat yaratganda unga yangi bino qo‘shiladi, yangi binoga esa yangi qavat qo‘shiladi. Bitta hujjatda bir nechta bino yaratish imkoni mavjud: menyuning **Sozdat / Zdanie...** buyrug‘i yoki **Struktura** servis oynasidagi **Zdanie** piktogrammasi.

Ammo bizning birinchi masalamizda bu imkoniyatdan foydalanmaymiz va alohida turuvchi bitta binoni modellashtirish bilan kifoyalanamiz.




Har bir bino tashkiliy jihatdan bir nechta qavatlarga ajratiladi. Yangi qavatni qo‘shish uchun **Sozdat / Etaj...** yoki **Struktura proekta** servis oynasidagi **Etaj** piktogrammasidan foydalaniladi.



*Эслатма: Loyihada yangi qavatni yaratganda opsiyada uning fasadini yaratuvchi hujjatlash tirishning 4 ko‘rinishi yaratiladi. Bu ko‘pincha uncha katta bo‘lmagan loyihalarda qulaylik yaratadi, sababi fasadni yaratish zaruriyatidan ozod etadi. Ammo, bu opsiya **Nastroyki / Nastroyki SAPFIR...** menyuni buyrug‘idan foydalanib o‘chirib qo‘yilishi mumkin. Ushbu buyruqda **Fasadni po umolchaniyu** opsiyasi ko‘rsatilgan **Redaktirovanie** varag‘i tanlanishi kerak bo‘ladigan sozlash muloqati taklif qilinadi. Opsiyaning “Da” varianti fasadning yaratilishini anglatadi, “Net” varianti yangi binoni yaratishda fasadni yaratishni bekor qiladi. Bundan tashqari ushbu joyda **Novyy dokument** opsiyasi ham keltirilgan. Ushbu opsiya har gal dastur yuklanilganda yangi hujjat yaratilishi mumkinligini belgilaydi. Agar ish jarayonida oddiy profil bitta loyiha ustida uzoq vaqt ishlatilishi kerak bo‘lsa, **Novyy dokument** opsiyasida “Net” varianti o‘rtalishi qulay. U holda har gal dastur yuklanilganda yangi bo‘sh hujjat yaratilmaydi.*

## 9.2 Koordinata o‘qlari

Koordinata o‘qlarini yaratish uchun **Sozdat/Koordinatsionnye osi....** menyu buyruqlaridan foydalaniladi. Bu buyruq yordamida **Koordinatsionnye osi** muloqat oynasi ochiladi. (9.1-rasm). Muloqat oynasi qurilish koordinatsiya o‘qlari to‘ri ko‘rsatkichlarini boshqarish uchun xizmat qiladi. Yoysimon o‘qlarning bo‘lish yoki bo‘lmasligi to‘r turlari orqali amalga oshirildi: to‘g‘riburchakli yoki radial.



9.1-rasm. Koordinatsiya o‘qlari muloqat oynasi

Muloqat oynasida bir nechta guruhlariga ajratilgan boshqaruv zlementlari keltirilgan. **Interval** guruhida ikkita yo‘nalishdagi o‘qlar va o‘qning pozitsiyalari orasidagi interval qiymatlari keltirilgan ikkita jadval keltiriladi. O‘qlarning pozitsiyasi berilgan intervallarga bog‘liq va aksincha. Pozitsiya o‘qlari orasidagi interval qiymatlarini kiritishda leyngi o‘qlar o‘zgartiriladi. Qaysidir o‘qning pozitsiyasini kiritishda oldingi interval o‘zgartiriladi va keyingi o‘qlar aozitsiyasi o‘zgartiriladi.

**Koordinatsionnye osi** muloqat oynasi boshqaruv elementlaridan foydalanib o'qlar to'ri ko'rsatkichlarini sozlash mumkin. **Pryamougolnaya** to'r tipini tanlaymiz. Koordinata boshi nuqtasi sifatida to'rning chap pastki burchagini tanlaymiz. **X** va **Y** o'qlari bo'yicha 0.0 koordinatalarini kiritamiz. O'q va harflar rangini kiritamiz va **OK** tugmasini bosamiz.

Grafik oynada model to'rini ko'rishimiz mumkin. Koordinatsiya o'qlari to'ri nafaqat chizmalarni rasmiylashtirish uchun, balki bino konstruksiyalari elementlarni modellashtirishda asos vazifasini ham bajaradi. To'rni yaratishning mufobil varianti – to'g'riburchakli to'r hisoblanadi. Sonli va harfli o'qlar orasidagi intervallar qiymatini berish, keyinchalik to'rning geometrik gabaritini berish mumkin.

### **9.3 Konstruksiya elementlarini yaratish**

Har bir o'ziga xos maxsus konstruksiya elementini yaratish uchun unga mo'ljallangan maxsus uskunalar mavjud va ular uskunalar paneldagi tugmalar yordamida chaqiriladi.

Klassik interfeysda **Instrumenty** panelida taqdim etilgan uskunalar to'plami dastur rejimiga bog'liq. Rejimlarni o'zgartirish uskunalar panelining yuqori qismida joylashgan piktogramma yordamida amalga oshiriladi. "Lenta" rejimida esa yorliq tanlash bilan amalga oshiriladi.

SAPFIR dasturida quyidagi ishlash rejimlari mavjud:

**Arxitektura** - me'moriy va strukturaviy elementlarni yaratish rejimi, devorlar, ustunlar, to'sinlar, orayopmalar va boshqalarning fizik va analitik tasvirlari bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u ixtiyoriy shakllarni yaratish imkoniyatini beradi.

Ushbu rejimning uskunalari **Sozdanie** oynasidagi lentada taqdim etilgan.


**Konstruirovaniye** - idealizatsiyalashgan analitik model bilan ishlash rejimi bo‘lib, asosiy ob‘ektlari sterjen, plita, yuklar va bog‘lanishlar bo‘lgan analitik ko‘rinish yaratilgandan keyingi ishlov (to‘g‘irlash, kesishtirish, triangulyatsiya) berish imkoniyatini taqdim etadi. Bu imkoniyatlar lenta rejimida **Analitika** yorlig‘i orqali taqdim etilgan.

**Armirovaniye** – temirbeton konstruksiyalarning orayopma plitalari, bikirlik diafragmalari, ustunlar va to‘sinlar kabi elementlari bilan ishlash rejimi – armaturalash uchastkalarini aniqlash, karkaslar, alohida sterjenlar va boshqa armatura detallarni o‘rnatish io‘larini bajarish uchun uskunalar taqdim qiladi. Lentada shu nomdagi yorliq mavjud bo‘lib, unda ustunlarni unifikatsiyalovchi, to‘sinlarni unifikatsiyalovchi, armaturalash spetsifikatsiyasi va chizmalarni yaratishga mo‘ljallangan uskunalar keltirilgan.


**Cherteji** - chizmada loyihaning ikki o‘lchovli ko‘rinishi bilan ishlaydigan rejim, chiziq chizish, izohlar keltirish, shtrixlash va yozuvlar yozish uchun uskunalar taqdim etadi. Lentadagi **Annotatsii** yorlig‘i chizmalar, loyihalar tayyorlash, ishchi hujjatlarni tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq ishlarni bajarishni ta‘minlaydi.

Binoning konstruksiyalarini ifodalovchi me‘moriy va konstruktiv elementlarni yaratish uchun Dasturni **Arxitektura** rejimiga o‘tkaziladi yoki lentada **Sozdanie** yorlig‘ini tanlanadi.

Stena uskunasi.



9.2-rasm. **Stena** uskunasi



ro'yxatidan **Nesumaya Stena** tugmasini bosish orqali **Stena** uskunasi ekranga chiqaring. Natijada, **Stena** uskunalar paneli xususiyati dastur oynasining yuqori qismida paydo bo'ladi. O'q chizig'ini qurish uchun **Otrezok** usulini tanlang (9.2-rasm).

**Svoystva postroeniya:Stena** muloqat oynasidagi ochiladigan **Material** oynasidan foydalanib devor uchun **Kirpich keramicheskiy** materialini tanlang. Devorning qalinligini **510 mm** qilib kiriting.

Sichqoncha tomonidan boshqariladigan uch o'lchovli lokatordan foydalanib, rasmda ko'rsatilgandek markaziy chiziqning bir nechta nuqtalarini ketma-ket ravishda kiriting.

Agar lokatorni koordinata o'qidagi tasvirga olib borsangiz va uni bir oz ushlab tursangiz, o'qlarning kesish nuqtalari ranglar bilan ajratiladi. Bu holat to'r o'qlarining tugunlari bo'ylab konstruksiyalarni aniq ravishda yaratishga yordam beradi: lokator tugunga yaqinlashganda, xuddi yopishgandek unga tortiladi va

to'g'ri joylashishni aniqlash imkoniyatini ta'minlaydi. Xuddi shu joyda nuqtani qayta kiritib, devorning markaziy qismini qurishni yakunlaymiz.

Ob'ektni o'q chizig'ida qurishni yakunlashning quyidagi usullari mavjud:

- Uchastkaning oxirgi nuqtasi kiritilgan joyga nuqtani qayta kiritish.
- Nuqtalarni kiritish jarayonida sichqonchanning o'ng tugmasi bosilganda paydo bo'ladigan Kontekst menyudagi **Sozdat** tugmasidan foydalanib.
- Klaviaturadan **Enter** tugmasini bosib.
- Zanjirning birinchi nuqtasiga mos keladigan oxirgi nuqtani kirib, zanchirni yopib.

Ob'ektning o'q chizig'i qurilishi tugallanganiga qadar yangi yaratilayotgan ob'ekt karkas chiziqlari ko'rinishida tasvirlanadi. Qurish tugagach, yangi ob'ekt tomonlarining chekkalari vizuallashtirish rejimida ko'rsatilgan rangga muvofiq rang bilan tasvirlanadi.




O'q chizig'ini yaratish jarayonida yoy aylanasini qurish **Duga T1 T2 T3** usuli rejimiga o'tish mumkin (9.3-rasm).

Devorning o'q chizig'iga nisbatan joylashuviga bog'lanish parametrlari ta'sir etadi. Yaratilgan devor modellarini tartibga solish uchun uskunalar panelidagi tegishli tugmani bosib dasturni **Ukazivanie** rejimiga o'tkazing.


Uskunalar panelida **Ukazivanie** uskunasi xususiyatlari yuklanadi. Nuqtani kirituvchi lokator ko'rsatgichi kursor bilan almashtiriladi.

Kursor yordamida devorni ko'rsating va sichqonchanning chap tugmasini bosing. Ushbu devor tanlash rangi bilan belgilanadi (9.4-rasmga qarang), uning nazorat nuqtalari ta'kidlanadi.





9.3-rasm. Devor segmentlarini to‘g‘ri kesma va Yoy aylanasini qurish usullari orqali yaratish




9.4-rasm. Devorni tahrirlash

Devor chizig'ini tartibga solish uchun **Redaktirovanie** yorlig'idan **Perenesti vershinu** buyrug'idan foydalanamiz. 9.4-rasmda ko'rsatilgan A-2 va A-3 o'qlar orasidagi devorni kursor bilan ko'rsatib belgilang, **Redaktirovanie** yorlig'idan **Perenesti vershinu** buyrug'ini bajaring. Belgilangan ob'ektning nazorat nuqtasiga sichqonchanning chap tugmasi bilan bosing va tugmani ushlab turgan holda harakatlanishni boshlang.

Belgilangan ob'ekt nuqta bilan harakat qiladi. Endi sichqonchanning chap tugmasini quyib yuborish mumkin, nazorat nuqtasi nuqtalarni kiritish lokatori joylashgan joyga ko'chadi. Sichqoncha yordamida lokatorni ko'chiring va nuqtaning yangi joyini tanlang. Sichqonchanning chap tugmasi bilan ko'rsatish orqali nuqtaning yangi holatini fiksirlang.

Devorlarni bir-biriga ulash usulini o'zgartirish uchun klaviaturada **Shift** bosib ushlab turgan holda oldingi va ikkinchi devorni belgilang. **Redaktirovanie** yorlig'idagi **Podrezka** panelidagi uskunalardan foydalanib devorlarning bir-biriga ulanishini tartibga solish mumkin (9.5-rasmga qarang).



## 9.5-rasm. Devor fragmentlarini qirqish va ulash

### 2-mavzu: Konstruksiya elementlarini yaratish

#### Reja:


1. To'sinlarni avtomatik konstruksiyalashga tuzatishlar kiritish. To'sin uchun chizma varag'ini yaratish.

2. SAPFIR-JBK tizimi yordamida temirbeton diafragmani loyihalash: Diafragmani armaturalash hisobini bajarish va loyihalash uchun minimal zaruriy ma'lumotlar.


3. Armaturalash natijalarini import qilish. Diafragmani avtomatik rejimda loyihalash. Tuynukli diafragmani avtomatik tarzda konstruksiyalash.

4. Diafragma qirqimi bilan ishlash. Armaturalashning tugunlarini yaratish. Armaturalashni 3D ko'rinishda vizuallashtirish. Avtomatik rejimda chizmalar yaratish.

**Okno** buyrug'i bilan ishlash.



**Sozdanie** yorlig'idan **Okno** buyrug'ini tanlaymiz. **Svoystva postroeniya:** **Okno** panelida yaratilayotgan oyna xususiyatlari tasvirlanadi (9.6-rasm). Deraza o'rni o'lchamlari, joylashish chuqurligi, polga nisbatan uroven va boshqa ko'rsatkichlar mos maydonlarda kiritiladi. Devordagi teshiklarning joylashtirilishi uch o'lchamli lokator bilan amalga oshiriladi. Teshik o'zining bazaviy nuqtasiga nisbatan quyidagi to'rtta usuldan biri orqali o'rnatiladi: chap burchakka, markazga, o'ng burchakka va yuzasi/orqa tomoni bilan. Deraza o'rni balandlik bo'yicha qavat poliga nisbatan oyna sillasi (podokonnik) urovenini belgilovchi **Uroven** ko'rsatkichli bilan amalga oshiriladi.



9.6-rasm. Okno uskunalari


Deraza oʻrni turi, toʻldirilish usulini, oʻlchamlari va boshqa koʻrsatkichlarini sozlash uchun **Параметры** tugmasini bosish kerak. Ushbu tugma bosilganda **Параметры okon** muloqat oynasini ochiladi. Oynaning chap qismida (9.7-rasm) bibliotekda mavjud oynalarning roʻyxatlari daraxt koʻrinishda tasvirlangan. Roʻyxatdan sichqoncha bilan **Прямougolный проем** qatorini tanlang. Tanlangan turdagi oynaning modeli oldindan koʻrish oynasida koʻrsatiladi.

Koʻrsatkichlar jadvalida koʻrsatkichlarning joriy qiymatlari keltirilgan. **Размеры проема** boʻlimini oching. **Ширина (V),mm – 1500**, **Высота (N),mm – 1200**, oʻlchamlarni kiriting. **Размещение окна** boʻlimiga oʻting va u yerda **Позиция, mm – 500**, **Уровен, mm – 800** va **Глубина, mm - 50** koʻrsatkichlarni kiriting. Oynaning koʻrsatkichini kiritishni **OK** tugmasini bosib tugating.


Binoning fasadida bir nechta ochiq oʻrinlarni joylashtirish uchun lokatordan foydalaning. Buning uchun sichqonchani koʻchirgan holda, kursorni devorning tasviri ustiga koʻchiring, uchta oynalarni binoning old fasadiga va bitta oynani duga qismiga joylashtiring (9.8-rasm).

**Заполнение** tugmasi deraza uchun ochiq oʻrinlarni toʻldirishni parametrik konstruksiyalash orqali amalga oshirishga moʻljallangan muloqat oynasini ekranga chaqirish uchun xizmat qiladi. Bu muloqat oynasida oynaning varaqalari


soni, varaqalar o'lchamini aniqlash, to'siqlar, **fortochka**, **gorbylka** va **framugalarni** kiritish mumkin (9.8-rasm).




9.7-rasm. **Параметры окон** muloqat oynasi




9.8-rasm. Deraza o‘rinlarini to‘ldirish



**Dver** uskunasini tanlang, **Parametry** tugmasini bosib, eshik tipini tanlang va eshik o‘rni ko‘rsatkichlarini sozlang (9.9-rasm). Keyin uch o‘lchamli lokator yordamida eshik o‘rni loyihalananayotgan binoning devori ichiga joylashtiring (9.10-rasm).




9.9-rasm. Dver muloqat oynasi




9.10-rasm. Eshik o'rnini ochish va to'ldirish

### Plita (Perekrytie) buyrug'i bilan ishlash



**Plita (Perekrytie)** buyrug'ini bosib mos uskunani ekranga chiqaring. Orayopma plitaning qoinligini kiriting va materialini tanlang. Keyin uch o'lchamli lokator yordamida mos nuqtalarini kiriting (9.11-rasm). Nuqtalarni kiritish jarayonida bino konturining to'g'ri va radiusli uchastkalarini ketma-ketligini bajarish uchun plitani qurish usullarni o'zgartirib boring. Orayopma konturini yaratish uchun **Sepochka** va **Zamykat** rejimlarni oldingi holicha qoldirilishi kerak, uni bekor qilish mumkin emas, chugki ushbu ob'ektni qurishda ob'ekt yopilishi talab qilinadi.



9.11-rasm. Orayopma plitani yaratish

Orayopma plitani balandlik bo'yicha o'rtanishni sozlash uchun **Uroven** guruhidagi boshqaruvchi elementlardan foydalaning. Uroven qavatning poli urovenidan yoki qavat balandligi otmetkasidan boshlab o'rnatilishi mumkin.

Agar orayopma plitani yaratishda **Fiksatsiya urovnya** tugmasi faollashtirilgan bo'lsa, konturning nuqtasi qaysi urovenda kiritilishidan qat'iy nazar orayopma plitani qurish tahrirlash oynasida keltirilgan son urovenida yaratiladi. Agar **Fiksatsiya urovnya** tugmasi faollashtirilmagan bo'lsa, unda yuqoridagi tekislikning balandligi otmetkasi uch o'lchamli lokatorning holatiga bog'liq bo'ladi. Lokator fazoda ko'chib yurib, orayopmaning urovenini aniqlaydi.

Vertikal o'q bo'ylab harakatni amalga oshirish uchun **Shif+Z** jamlamasidan foydalaning yoki Z koordinatasini o'zgartirish uchun **Ctrl** tugmasini bosib ushlab turing va kursorni harakatlantiring.


Plitani yaratish jarayonida bira to'la uzoq muddatli vaqtinchalik va qisqa muddatli yuklarni kiritib ketish qulaylik yaratadi. Plitaga tushadigan uzoq muddatli va qisqa muddatli vaqtinchalik yuklarni turli yuklanishlarga joylashtiriladi, bu esa ularning birgalikdagi hisobiy jamlamasini yaratish imkonini beradi.

#### 9.4 Qavat rejasi

Modelni yaratish va tahrirlashni rejada davom ettiring. **Vidy** servis oynasida loyiha elementlarining daraxtga o'xshash ro'yxati tasvirlangan. Ro'yxat elementlarini sichqoncha yordamida ko'rsatish mumkin. Ko'rsatilgan ob'ektga ikki marta sichqoncha tugmasi bosilsa ob'ekt oynada tasvirlanadi.

**Vidy** servis oynasida **Plan** etajey ob'ektiga kursorni joylashtiring va sichqonchaning o'ng tugmasini bosing. Kontekst menyu paydo bo'ladi va unda **Sozdat** buyrug'ini bajaring. Hosil bo'lgan muloqat oynasida **OK** tugmasini bosing (9.12-rasm).






9.12-rasm. **Plan** muloqat oynasi

Loyiha ustidagi amallarni rejada bajaring. **Sozdanie** yorlig'idan **Kolonna** ro'yxatini tanlab, **Kolonna** buyrug'ini bajaring. **Svoystva postroeniya: Kolonna** panelida ro'yxatdan Materialы qatorini tanlang va ochiladigan ro'yxatdan Beton B30 qatorini tanlang va OK tugmasini bosing. Qavat rejasida bir nechta ustunlarni joylashtiring. Joylashtirish nuqtalarni kiritish lokatori yordamida amalga oshiriladi.

Ob'ektni joylashtirish jarayonida koordinatalarga muayyan qiymatlarini kiritish uchun, **X**, **Y** yoki **Z** tugmachalarini bosing. Bunda koordinatalarni tahrirlash oynasida mos koordinatalar satri faollashadi. Bir koordinatadan boshqasiga o'tish uchun **Tab** klavishini, aksincha orqaga qaytish uchun **Shift+Tab** klavishlari jamlamasini bosing. Xuddi shunday, yuqlriga va pastga yo'nalgan strelkalardan ham foydalanish mumkin. Berilgan holatdagi nuqtani kiritish Ente tugmasini bosish bilan kiritiladi.

## 9.5 Qavatlarni takrorlash

Aytaylik, bir nechta bir xil tipdagi qavatlar yaratish talab etiladi. Buning uchun yangi qavatni yaratishda modelni nusxalash imkoniyatidan foydalanish juda qulay. **Struktura** servis oynasida **Sozdat etaj** tugmasini bosib va **Sozdat novyy etaj** muloqat oynasi chaqiring. **Kolichestvo** qatoriga - 3, **Высота** etaja qatoriga - 3000 kiriting, **kopirovat elementy** qatoriga belgi oʻrnatib va



-tugmasini bosib (9.13-rasm).


Nusxalanayotgan ob'ektlar filtrini sozlang. Muloqat oynasida ob'ekt tiplari keltirilgan. Yangi yaratiladigan qavatda qaytarilishi kerak boʻlgan elementlar belgi oʻrnatish orqali tanlab olinadi. Qaytarilishi kerak boʻlmagan ob'ektlardan belgi olib qoʻyilishi kerak va **OK** tugmasini bosib.

**Sozdat novyy etaj** muloqat oynasining standart holatida **Naznachit v kachestve aktivnogo** qatorida belgi oʻrnatilgan. Bu yangi yaratilgan qavat joriy faol qavat boʻlishini anglatadi. Bir nechta qavatdan tashkil topgan binoni loyihalash jarayonida dastur qaysi qavat faol ekanligi toʻgʻrisida aniq koʻrsatma olishi kerak. Joriy faol qavatni tayinlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

**Struktura** servis oynasi kontekst menyusidagi **Naznachit etaj aktivnym** buyrugʻidan foydalanib;

**Struktura** servis oynasida qavat nomiga sichqonchanning tugmasini ikki marta bosish orqali.

**Struktura** servis oynasida daraxt koʻrinishidagi roʻyxatdan foydalanib loyiha tarkibidagi istalgan ob'ektni tanlash va ularning istalgan xususiyatlarni tahrirlash mumkin. Maslan qavatning balandligini oʻzgartirish mumkin. Buning uchun qavatni koʻrsatib, **Svoystva** panelida koʻrsatilgan qavatning xususiyatlarini koʻrish mumkin.



9.13-rasm. Loyihaning umumiy koʻrinishi

#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg'ulot. SAPFIR–JBK tizimi yordamida monolit ustunlar va to'sinlarni konstruksiyalash masalasini yaratish

#### Maqsad va vazifalar:

- Armaturalar tanlash hamda ustun va to'sinlarni konstruksiyalash uchun zaruriy ma'lumotlar minimumini tavsiflash;
- VIZOR–SAPR tizimida bajarilgan armatura tanlash natijalarini SAPFIR – JBK tizimiga import qilish jarayoni ko'rsatib berish;
- ustunlarni bir xillashtirishni bajarish jarayoni texnologiyasini bajarish.

#### Dastlabki ma'lumotlar:

Ushbu misol bilan ishlash uchun geometrik model yaratilgan **7\_kolonny\_balki** faylini ochish kerak. Dasturni o'rnatishda, standart holatda namunaviy masalalar fayllari **C:\ProgramData\SAPFIR\Sapfir2017\Samples** manzilidagi papkaga o'rnatiladi.



SAPFIR tizimini yuklash uchun quyidagi buyruqlarni bajaring:

**Pusk→Vse программы→LIRA SAPR→LIRA-SAPR 2017→SAPFIR 2017.**

Yuqoridagi katalogdagi **7\_kolonny\_balki** masalasini oching.

**SAPFIR** (menyu **Pusk Windows→Vse программы→LIRA SAPR-LIRA→SAPR 2017**).




*Tanlangan masala uchun hisoblash modeli yaratilgan. VIZOR – SAPR tizimida hisoblash natijalarini tahlil qilish uchun -**Открыт** (**Analitika** yorlig'i, **Raschet v LIRA-SAPR** paneli) tugmasini bosib va hisoblash sxemasi VIZOR – SAPR tizimida ochiladi. Sxemaning chekli elementlari hisobini bajarish uchun -**Выполнит raschet** (**Raschet** yorlig'i, **Raschet** paneli) tugmasini bosib. Natijalarni ko'rish uchun **Analiz** (statik hisoblash) va **Jelezobeton** (armaturalar tanlash) yorliqlaridagi buyruqlardan foydalaning.*

## 1-bosqich. Armaturalar tanlash hamda ustun va to'sinlarni konstruksiyalash uchun zaruriy ma'lumotlar minimumi


Ustunlarni konstruksiyalashda model quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

1. SAPFIR tizimidagi ob'ekt modelida ustun va to'sinlar ishtirok etishi;
2. Ustun va to'sinlar xususiyatlari panelida **Nesumiy konstruktiv** variantida talqin qilinishi lozim;
3. LIRA-SAPR tizimida ustun va to'sin sterjenlariga materail tayinlanishi va armaturalar tanlashi kerak;
4. Ustun va to'sinlar uchun materiallar kategoriyasi **temirbeton** bo'lishi lozim (**Materialы** muloqat oynasida sozlanadi, 12.1 rasm)




12.1 rasm. Ustun va to'sinlarni armaturalash uchun minimal zaruriy malumotlar

## 2-bosqich. Armaturalash natijalarini import qilish


- **Армирование** yorlig'iga o'ting va **Результаты армирования** panelida birinchi o'rinda joylashgan -**Показат** tugmasini bosing.



Agar fayl bilan hech qanday avvaldan yaratilgan natijalar bog'lanmagan bo'lsa, u holda **Zagruzka rezultatov raschyota armirovaniya** muloqat oynasi ochiladi (12.2-rasm), oynada hisoblash natijalarini faylini tanlash va **Otkryt** tugmasini bosish kerak. Dasturni o'rnatishda, bu misol uchun natijalar fayllari **C:\ProgramData\SAPFIR\Sapfir2017\Samples** manzilidagi papkaga joylashtiriladi.

PK LIRA–SAPR tizimida shakllantirilgan natijalar faylini (\*.asp), xuddi shu nom bilan modelning boshlang'ich fayli (\*.spf) joylashgan papkada saqlash tavsiya qilinadi. Shunda SAPFIR tizimida -**Pokazat** tugmasi bosilganda (loyiha xususiyatlarida **Avtozagruzka rezultatov** qatoriga belgi o'rnatilgan bo'lishi kerak) natijalar avtomatik tarzda yuklanadi.


➤ **Slujebnaya informatsiya** oynasida import jarayoni haqidagi quyidagi ma'lumotlar tasvirlanadi: hisob bajarishning me'yoriy asosi, hisob turi (RSU, RSN, Usiliya), armaturalangan diafragmalarni ifodalashdagi chekli elementlar soni, armaturalanuvchi ustunlar va to'sinlar soni.



12.2 – rasm. Armaturalash natijalari fayli importi

### 3-bosqich. Ustunlarni bir xillashtirish

Ustunlar uchun armaturalash (sterjenlar holati shablonlari) turlarini yaratish.



-  -Unif. kolonn (Armirovanie yorlig'i, Osnovnaya armatura paneli ) tugmasini bosib Unifikatsiya kolonn muloqat oynasini ekranga chaqing. (12.3-rasm).



*Ustunlar kesim o'lchamlari, qavatlar va balandligi bo'yicha filtrlanishi mumkin. Unifikatsiya kolonn muloqat oynasida ustunlar ko'ndalang kesimlar bo'yicha filtrlangan. Kesimlar yuzalarinining kamayishi tartibida filtrlangan. Kesim nomida doim katta o'lchamdagilar birinchi keladi, yani, masalan, ustunlar o'lchami 60x40 va 40x60 bitta ro'yxatda ifodalanadi. 40x60 o'lchamdagi ustunlar \* ko'rinishidagi shartli belgi bilan tasvirlanadi, unga muloqat oynasining pastida tushuntirish beriladi. Ustunlar armaturalash foizining kamayishi tartibi bo'yicha saralangan. Simmetrik armaturalashda har bir ustun uchun quyidagilar chaqiriladi: hisoblash bo'yicha zarur armaturalash foizi, armaturalashning hisobiy yuzasi, burchak armaturasi yuzasining qiymati (AU1), qirra bo'ylab taqsimlangan (AS1, AS3) va ikki yo'nalish bo'yicha ko'ndalang armaturalarning yuzalari (ASW1, ASW2). Muloqat oynasining o'ng qismida diagramma joylashgan: abssissalar o'qi bo'ylab armaturaning hisobiy yuzasi, ordinatalar o'qi bo'ylab – ustunlar soni joylashtirilgan.*

№	Этаж	Марка	М.	Название	%	ΣАудит	Тип арм.	% факт.	Σ факт.	и аудит
1*	1-Фз...	нет	Колонна	1,47	41,20	нет	0,0	0,0	0,0	
2*	2-Фз...	нет	Колонна	0,89	24,87	нет	0,0	0,0	0,0	
3*	3-Фз...	нет	Колонна	0,87	24,31	нет	0,0	0,0	0,0	
4*	4-Фз...	нет	Колонна	0,85	23,75	нет	0,0	0,0	0,0	
5*	1-Фз...	нет	Колонна	0,77	21,51	нет	0,0	0,0	0,0	
6*	1-Фз...	нет	Колонна	0,77	21,51	нет	0,0	0,0	0,0	
7*	4-Фз...	нет	Колонна	0,75	20,95	нет	0,0	0,0	0,0	
8*	4-Фз...	нет	Колонна	0,65	18,15	нет	0,0	0,0	0,0	
9*	1-Фз...	нет	Колонна	0,63	17,59	нет	0,0	0,0	0,0	
10*	4-Фз...	нет	Колонна	0,57	15,91	нет	0,0	0,0	0,0	
11*	4-Фз...	нет	Колонна	0,55	15,35	нет	0,0	0,0	0,0	
12*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
13*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
14*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
15*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
16*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
17*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
18*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
19*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
20*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
21*	7-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
22*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
23*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
24*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
25*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
26*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
27*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
28*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	
29*	4-Фз...	нет	Колонна	0,37	10,31	нет	0,0	0,0	0,0	

12.3-rasm **Unifikatsiya kolonn** muloqat oynasi

- Kesimi 70x40 ustunlar uchun armaturalash foizi 1,47% (ro‘yhatda birinchi) bo‘lgan ustunlarni belgilang.
-  -**Sozdat noviy tip armirovaniya** tugmasini bosing.
- Tanlangan armaturalash tipini tahrirlash uchun ularni o‘ngdagi ro‘yhatdan tanlang va  -**Redaktirovat tip armirovaniya** tugmasini bosing (armaturalash tipiga ikki marta bosiladi).
- Ochilgan **Tip armirovaniya AT-001** (12.4-rasm) muloqat oynasida **Vdol Y** ochilgan ro‘yxatida Ø16 tanlang.
- So‘ngra **OK** tugmasi bosing.



Тип армирования AT-040

Название типа армирования: AT-040

Сечение колонны: Прямоуг 70.0x 40.0 2800.00см<sup>2</sup>

Угловые стержни: ρ32 4 x 8.04см<sup>2</sup>

Вдоль X 1 x ρ25 2 x 4.91см<sup>2</sup>

Вдоль Y 1 x ρ16 2 x 2.01см<sup>2</sup>

Толщина защитного слоя силовой арматуры, мм 30

Поперечное армирование

Диаметр арматуры: ρ8 Шаг хомутов, мм 200

Число срезов W1 2 ASW1\* 5.03см<sup>2</sup>/м 0.31см<sup>2</sup>/м

Число срезов W2 2 s= 0.50см<sup>2</sup> ASW2\* 5.03см<sup>2</sup>/м 0.21см<sup>2</sup>/м

Площади стержней

	Фактические	Расчётные
AU1-4	8.04см <sup>2</sup>	8.04см <sup>2</sup>
AS1-2*	4.91см <sup>2</sup>	4.03см <sup>2</sup>
AS3-4*	2.01см <sup>2</sup>	0.49см <sup>2</sup>
ΣAs, см <sup>2</sup>	46.01см <sup>2</sup>	41.20см <sup>2</sup>
	1.64 %	1.47 %

OK Отмена \* - имеются колонны, сечение которых повернуто, результаты переименованы.

12.4–rasm. Tip armirovaniya muloqat oynasi



**Tip armirovaniya AT-001** muloqat oynasida hisoblash natijalari bo'yicha va dastur tanlagan – haqiqiy sterjenlar yuzalarini taqqoslash, nazorat qilish va zaruriyat tug'ilganda, X o'qi bo'ylab, Y o'qi bo'ylab va burchaklar armatura sterjenlari sonini tahrirlash. VIZOR – SAPR tizimida **Выделять угловые арматурные стержни** (12.5-rasm) maydoniga belgi o'rnatilmagan bo'lsa, SAPFIR tizimida ham bo'lmaydi va natijalar faqat chegaralar bo'ylab taqsimlangan yuzalardan tashkil topadi.

Общие характеристики

Модуль армирования: Стержень Система:  CHO  CO % армирования: Min 0.05 Max 10

Точность (%) на стадии: предварительного расчета 20 основного расчета 1

Армирование:


Привязка ц.т. арматуры: к низу сечения a1 3 см к верху сечения a2 3 см к боку a3 3 см

Конструктивные особенности стержней:  НЕ учитывать конструктивные требования  Стержень  Балка  Колонна - пилон  Колонна рядовая  Колонна первого этажа

Выделять угловые арматурные стержни

Располагать боковую арматуру в полке

12.5 rasm. Общие характеристики модуля armirovaniya muloqat oynasi

- Klaviaturadagi **Shift** klavishasini bosib turib, armaturalash foizi 0.89- 0.75% bo‘lgan (ro‘yxatdagi keyingi oltita ustun) ustunlarni belgilang va -**Sozdat novyy tip armirovaniya** tugmasini bosing.




*Tanlangan armaturalash tipi barcha tanlangan ustunlarda mustahkamlik bo‘yicha javob beradi, xuddi shunday burchak armaturalari yuzasi, chekkalardagi armaturalar yuzasi, ko‘ndalang armaturalar yuzasi va kesimdagi armaturalar yuzalari yig‘indisini zarur bo‘lgan armaturalar bilan qoplanadi.*

*Agarda, tanlangan armaturalash tipida armatura ajratilgan ustunlar uchun yetarli bo‘lsa, u holda ro‘yxatdagi ustun raqami yashil rangga bo‘yaladi va ustunda **Аrmaturы dostatochno** izohi paydo bo‘ladi.*

*Agarda, tanlangan armaturalash tipida ishchi armatura intensivligi yetarli bo‘lmasa, u holda ustun raqami qizil rangda bo‘ladi.*


*Agarda armaturalashning tanlangan foizi hisoblash bo‘yicha zaruriysidan 2 marta ortiq bo‘lsa, ustun raqami to‘q ko‘k rangga bo‘yaladi va **Аrmaturы bolee chem dostatochno** izohi paydo bo‘ladi.*

- Klaviaturada **Shift** klavishasini bosib turib, armaturalash foizi i 0.65-0.55% bo‘lgan (ro‘yxatdagi keyingi to‘rtta ustun) ustunlarni belgilang va -**Sozdat novyy tip armirovaniya** tugmasini bosing.

- Klaviaturada **Shift** klavishasini bosib turib, armaturalash foizi 0.37% (12 dan 63 gacha) qolgan ustunlarni belgilang va ular uchun armaturalash tipini yarating.

- Ochilgan ranglar ro‘yxatiga bosib, **Выбор света** muloqat oynasini (12.6–rasm) chaqiring.

- Ochilgan muloqat oynasida 70x40 kesim uchun qizil rang tanlang va **OK** tugmasini bosing.



12.6 – rasm. Kesim uchun rang belgilash




*Armaturalashning barcha tiplari turli tushlarga bo‘yaladi, bu kesimdagi ishchi armaturaning yig‘indi yuzalari intensivligiga bog‘liq. Armaturalash foizi ko‘p bo‘lgan ustunlar to‘q rang, armaturalash foizi kamroq bo‘lgan ustunlar esa ochroq tusga tasvirlanadi.*

- Ustunlar kesimi ro‘yxatini oching va ro‘yxatdan **Pryamoug. 60.0x40.0.** kesimni tanlang. Yuqorida keltirilgan usul bilan ushbu ustunlarga bir nechta armaturalash tipini yarating.
- **Sveta** muloqat oynasida **Pryamoug. 60.0x40.0** kesim uchun ko‘k rangni tanlang.
- Ustunlarni raqamlashni yangilash uchun sichqonchanning o‘ng tugmasi bilan ustunlar ro‘yxatiga bosing va kontekst menyudan **Perenumerovat tipy armirovaniya** buyrug‘ini tanlang.

#### Ustunlarni markalash


- Ustunlarni markalash uchun sichqonchanning o‘ng tugmasi bilan ustunlar ro‘yxatiga bosing va kontekst menyudan **Naznachit marki..** buyrug‘ini bajaring.
- Ochilgan **Markirovka elementov konstruksii** muloqat oynasida quyidagi ko‘rsatkichlarni kiriting (12.7-rasm):
  - markalash prinsipi **-tip secheniya – tip armirovaniya - vysota kolonny;**
  - **peremarkirovat vse kolonny** maydoniga belgi o‘rnating.

➤ So‘ngra **OK** tugmasi bosing.



12.7–rasm. **Markirovka elementov konstruksii** muloqat oynasi

➤ Ochilgan SAPFIR 7.0 muloqat oynasida (12.8-rasm), **Da** tugmasi bilan barcha ustunlarning barcha kesimlari qayta markalanishi taklifini qabul qiling. Natijada barcha ustunlar uchun **Marka** ustuni to‘ldiriladi.




12.8–rasm. **SAPFIR 7.0** muloqat oynasi



*Markalashning keltirilgan prinsipidan kelib chiqib bir xil kesim, bir xil balandlik va armaturalashning umumiy tipiga ega bo‘lgan barcha ustunlar bitta marka oladi. Har bir ustun uchun o‘zining armaturalash modeli yaratiladi. Armaturalashning bir tipi bir necha markalarga mos kelishi mumkin. Misol uchun, agar ustunlarda sterjenlar bir xil joylashgan bo‘lsa, lekin turli balandlikka ega bo‘lsa. Har bir marka uchun faqat bitta armaturalash modeli yaratiladi.*

➤ So‘ng **OK** tugmasi bosiladi;

- Tanlangan armaturalash tipiga ko‘ra ustunlarni ranglarda ifodalash uchun -svet po tipu armirovanie (Armirovanie yorlig‘i, Osnovnaya aramtura paneli) tugmasini bosing.





## 2-amaliy mashg‘ulot. Vertikal elementlarni markalash rejasini yaratish


### Maqsad va vazifalar:

- ustunlar markalari uchun o‘lchamlar va vьmoskalarni yaratish;
- ustunlarni armaturalash haqidagi ma’lumotlarni tasvirlash;
- qirqimni yaratish jarayonini ko‘rsatish;
- markalash rejasi va qirqimlar tasvirlangan chizma varag‘ini yaratish texnologiyasini ko‘rsatish;
- chizma varag‘iga spetsifikatsiyani qo‘shishni ko‘rsatish.




## 4-bosqich. Vertikal elementlarni markalash rejasini yaratish

### Ustunlar markalari uchun o‘lchamlar va vьmoskalarni yaratish.


- **Struktura** muloqat oynasida  1-й этаж 0,000 qatorni tanlang va sichqonchanning o‘ng tugmasini bosing;
- Kontekst menyudan **Pokazat plan etaja** buyrug‘ini tanlang. Reja ko‘rinishidagi **7\_kolonny\_balki.spf:1-y etaj** oynasi ochiladi.
- Koordinata o‘qlari to‘rini belgilang.
- O‘qlar orasidagi o‘lchamalarni avtomatik o‘rnatish uchun **Osi** uskunasi qatoridagi  - **Oboznachit razмеры** tugmasini bosing.
- **Struktura** muloqat oynasida  1-й этаж 0,000 guruhini oching,  **Kolonna** guruhini belgilang va siyaqonqaning o‘ng tugmasini bosing.
- Kontekst menyusidan **Vьdelit** buyrug‘ini bajaring (12.9-rasm).




12.9–rasm. **Структура** oynasidagi ustunlarni belgilash

- Ustunlar o‘lchamlarini va ularning o‘qlarga bog‘lashni ko‘rsatish uchun  - **Avtomaticeskoe sozдание razmerov (Annotatsii yorlig‘i, Размеры paneli)** tugmasini bosing.
- Rejada elementlar markasini tasvirlash uchun,  - **Oboznachit marki na vynoskax (Annotatsii yorlig‘ida Marki paneli)** tugmasini bosing.
- Ustundagi belgilarni olish uchun klaviaturadagi **Esc** klavishasini bosing.
- Zaruriyat tug‘ilganda  - **Perenos vershiny (Annotatsii yorlig‘i, Korrektirovka paneli)** buyrug‘idan foydalanib o‘lchamlar va markalar holatini tahrirlang.


### [Ustunlarni armaturalash haqidagi ma’lumotlarni tasvirlash](#)

- **Informatsiya ob armirovanii kolonn** (Armirovaniya yorlig‘i, **Osnovnaya armatura** paneli) ruyxatidan  - **Nastroit informatsiyu ob armirovanii kolonn** tugmasini bosib **Informatsiya ob armirovanii kolonny** muloqat oynasini chiqaring (12.10 - rasm).







12.10–rasm. **Informatsiya ob armirovanii kolonn** muloqat oynasi


➤ Muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:

- **Razмеры сечения, Summarnaya ploщad armaturы, Protsent armirovaniya** (hisoblash natijalari bo‘yicha,) **Fakticheskaya ploщad sterjney** maydonlariga belgi o‘rnatish.
- So‘ng **OK** tugmasi bosiladi;
- **Informatsiya ob armirovanii kolonn** (Armirovanie yorlig‘i, Osnovnaya armatura paneli) ro‘yxatidan  **-Informatsiya ob armirovanii kolonn** tugmasini bosish.

### **5-bosqich. Vertikal elementlarni markalash qirqimini yaratish;**



#### Qirqimni yaratish


-   - **Razrez (Vidy yorlig‘i, Vidy paneli)** tugmasini bosish.
- **Razrez** uskunasi qatoridagi  - **Sechenie/Razrez** tugmasini bosish;
- 2 o‘q bo‘yicha A –A qirqimni kiriting va ko‘rinishni tanlash nuqtasini kiriting.
- **Vidy** (12.11-rasm) muloqat oynasidan **Razrezy** pakasidagi  **Разрез А-А** tugmasiga ikki marta bosish.




12.11–rasm. A–A qirqimining ochilishi.

Qirqimda elementlar markalarini aks ettirish.


-  - **Filtr ukazыvaniya ob'ektov (Vizualizatsiya paneli)** tugmasini bosib
-  - **Filtr ukazыvaniya ob'ektov** muloqat oynasini chaqiring (12.12-rasm).



12.12-rasm. **Filtr ukazыvaniya ob'ektov** muloqat oynasi



- Ochilgan muloqat oynasida quyidagilar bajariladi:
  -  - **Otklyuchit vse** tugmasi bosiladi;
  - **Kolonna** qatoriga belgi o‘rnating.
- So‘ng **OK** tugmasini bosing.
- Binoning barcha ustunlarini rezina oyna yordamida belgilang.



-  - **Oboznachit marki na vyimokax** (Annotatsii yorlig'i, **Marki** paneli) tugmasini bosing;
- Ustunlar belgilanishni bekor qilish uchun klaviaturadagi **Esc** klavishasini bosing.




**i** - *Informatsiya ob armirovaniï kolonn* tugmasi faollashgani sababli ustunning har bir markasi ostida armaturalash haqida malumot aks etadi. Qo'shimcha malumotning aks etishini o'chirish uchun **Informatsiya ob armirovaniï kolonn** tugmasini qayta bosing.

-  - **Avtomaticheskoe sozdanie otmetok** (Annotatsii yorlig'i, **Razмеры** paneli) tugmasini bosing.
- **Filtr ukazivaniya ob'ektov** muloqat oynasi chaqiriladi va  - **Vklyuchit vse** tugmasini bosib, ob'ektlarni belgilashning imkoniyatini oldingi holatiga qaytaring.
- **OK** tugmasini bosib kiritilgan o'zgarishlarni tasdiqlang.


Markalash rejasi va qirqimlar tasvirlangan chizma varag'ini yaratish

## **6-bosqich. Markalash rejasi va qirqimlar tasvirlangan chizma varag'ini yaratish**

### Chizma varag'ini yaratish

-  - **Новый list** (**Виды** yorlig'i, **Listы** paneli) tugmasini bosib **Sozdat novyy list cherteja** muloqat oynasini chaqaring (12.13–rasm).
- Ochilgan muloqat oynasida quyidagilarni bajaring:
  - **nazvanie cherteja** – **Markirovochnyy plan i razrez**;
  - format lista – **A1**
  - **pomestit na list vid “razrez” (SECT)** maydoniga belgi o'rnatish.


- So‘ng **OK** tugmasi bosing.
- Chizmaning varoqdagi joylashuvini tahrirlash uchun chizmani kursor bilan ko‘rsating, chizma belgilanadi.
- Belgilangan chizma ustiga kursorni bosib ushlab turing va sichqonchani xarakatlantirib ixtiyoriy joyga ko‘chiring.
- Belgilashlarni bekor qilish uchun klaviaturadan Esc tugmasini bosing.




12.13–rasm. **Sozdat novyy list cherteja** muloqat oynasi

- So‘ng **OK** tugmasini bosing.
- Dastur interfeysining o‘ng past burchagida joylashgan **Vidy** xizmat oynasiga o‘ting.
- **Fasad** papkasidagi Fasad-001 qatrini sichqonchanning kursori bilan bosib turgan holda chizma varog‘iga ko‘chiring.

### [Chizma varag‘iga spetsifikatsiyani qo‘shish](#)


- .-**Spetsifikatsii** (**Vidy** yorlig‘i, **Spetsifikatsii** ro‘yxati) tugmasi bosib **Spetsifikatsii** muloqat oynasi ekranga chiqaring (12.14-rasm).



12.14-рasm. **Spetsifikatsii** muloqat oynasi

➤ Ochilgan muloqat oynasida quyidagilarni bajaring:

- Ro‘yxatdan **Spetsifikatsiyu k sxeme raspolojeniya JBK** qatorini tanlang.
- ✓-**Pomestit tablitsu na list** tugmasini bosib, **Vыbrat list** (12.15 - rasm) muloqat oynasi ekranga chiqaring.




12.15 – rasm. **Vыbrat list** muloqat oynasi

➤ **Vыbrat list** muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:

- **Privyazka cherteja po gorizontali:–50 mm;**
- **Privyazka cherteja po vertikali:–100 mm;**
- ✓-**Vыbrat** tugmasini bosing.

- Soʻngra **X**-**ВЫХОД** tugmasini bosib, **Spetsifikatsii** muloqat oynasini yoping. Spetsifikatsiya reja va qirqim bilan birgalikda chizma varagʻida tasvirlanadi (12.16-rasm)



2.16–rasm. Markalash rejasi, qirqim va spetsifikatsiya jadvali chizma varagʻi





### **3 – amaliy mashgʻulot. Bir xillashtirilgan yaxlit temirbeton ustunlarni konstruksiyalash**


#### **Maqsad va vazifalar:**

- ustunlarni armaturalash modelini yaratish;
- ustunni armaturalash modelini chizmada joylashtirish;
- konstruksiyalashdan diametrlarni chiqarib tashlash;
- bir xillashtirilgan guruhlarni yaratish;
- BM–1 markasi uchun armaturalash modelini yaratish
- ikki oraliqli toʻsinlar uchun bir xillashtirilgan guruhlarni yaratish.


#### **7-bosqich. Bir xillashtirilgan yaxlit temirbeton ustunlarni konstruksiyalash**


##### [Ustunlarni armaturalash modelini yaratish](#)


- **Виды** muloqat oynasida  -**Обshiy vid** qatoriga ikki marta bosning.
- **Struktura** muloqat oynasida **1–qavat** joriy qavat sifatida tanlanishini nazorat qiling (joriy qavat nomi qalin shriftda belgilanadi).
- Birinchi qavatni fragmentlash (ajratib olish) uchun **Vizualizatsiya** panelidagi  -**Показат активный этаж** tugmasini bosning.
- Birinchi qavatning orayopma plitasini belgilang.
- **Vizualizatsiya** uskunalar panelida  -**Скрыт выделенные** tugmasini bosning.
- **I–2** o‘qlari kesishgan joydagi ustunni belgilang.
-  -**Zaarmirovat** (**Armirovaniye** yorlig‘i, **Osnovnaya armatura** paneli) tugmasini bosib **Armirovaniye kolonny** muloqat oynasi chaqiriladi(12.17-rasm).



12.17–rasm. **Armirovaniye kolonny** muloqat oynasi


-  **Создать модель армирования** tugmasini bosning. Tanlangan armaturalash tipiga ko‘ra konstruksiyalangan ustunlarni armaturalash modeli (bo‘ylama va ikkita ko‘ndalang qirqimda) yangi oynada ochiladi.

 *Uskunalar panelidagi **Armirovaniye kolonny** qatorida ushbu ustun markasi, armaturalash tipi, armaturalashning ushbu tipiga asoslangan markalar soni hamda ushbu markadagi ustunlar soni ifodalanadi.*

- Armaturaning egikligini yaratish uchun **Armirovanie kolonny** uskunalar panelida -**Otognut vyruski sterjney** tugmasini bosing.



*Ustunning pastida **Vyrusk** (chiqiq)lar shartli ravishda tasvirlangan. chiqiqlar diametri armaturalanayotgan ustunlarning ishchi armaturasi diametriga mos keladi. Ularni **Armirovanie kolonny** uskunasi panelida joylashgan **styk** (chok) maydonchasiga belgi o'rnatish yordamida boshqarish mumkin. Chok zonasidagi va o'rta qismidagi xomutlar qadamini **Razmeщenie xomutov** tahrirlash maydonida o'zgartirish mumkin. Yuqori zonadagi xomutlar qadami ikkita pastki xomutlarni hisobga olgan holda avtomatik aniqlanadi, so'ngra bu maydonni o'zgartirib bo'lmaydi.*


- -**Spetsifikatsiya** (Armirovanie yorlig'i, Dokumentatsiya paneli) tugmasini bosib **Spetsifikatsiya armatury. K-1-5-38** (12.18-rasm) muloqat oynasi chiqaring.







Позиция	Обозначение	Наименование	Кол-во	Масса	Примечание
ОСп1	ГОСТ 5781-82	ø32Ат400С, L=4880	4 шт.	123.2	отогнуть на 35мм
ОСп2	ГОСТ 5781-82	ø25Ат400С, L=4640	2 шт.	35.8	отогнуть на 25мм
ОСп3	ГОСТ 5781-82	ø14Ат400С, L=4270	2 шт.	10.3	отогнуть на 15мм
ОСп4	ГОСТ 5781-82	ø8Ат400С, L=2160	20 шт.	17.0	Хомут
К-1-5-38		Бетон В25	1.12 м³		
Итого:				186.4	в среднем 166,4 кг/м³


12.18–rasm. **Spetsifikatsiya armatury. K-1-5-38** muloqat oynasi

- So'ng **OK** tugmasini bosing.

- Zaruriyat tug'ilganda -**Perenos vershiny** (Armirovanie yorlig'i, **Korrektirovka** paneli) buyrug'idan foydalanib, o'lchamlar holati va armaturalash tasviridagi markalashni chiqarishlarni o'zgartiring.






Kesimdagi armatura sterjenlari holatini o'zgartirish zaruriyati tug'ilganda kesimga ikki marta bosib (**Vidyi**: muloqat oynasida mos  K-1-5-38: Paspes 1-1 va  K-1-5-38: Paspes 2-2 qirqimlarga ikki marta bosib) ustun kesimini oching. Kesimda sterjenlar holatini o'zgartirish uchun  -Perenos (Armirovanie yorlig'i, **Korrektirovka** paneli) buyrug'idan foydalaning. Sterjenlarning dastlabki joylashuviga qaytish uchun **Kolonna** uskunalari qatorida  - **Redaktirovat tip armirovaniya kolonny** tugmasini bosib, **Tip armirovaniya** muloqat oynasini ekranga chaqiring (12.4-rasm). Ochilgan muloqat oynasida **OK** tugmasini bosing.





12.19–rasm. Ustunni armaturalash modeli

[Ustunni armaturalash modelini chizmada joylashtirish](#)


-  **Spetsifikatsiya** (Armirovanie yorlig‘i, Dokumentatsiya paneli) tugmasini bosib **Spetsifikatsiya armatury** muloqat oynasini ekranga chaqiring (12.18-rasm).
-  -tugmasini bosib **Вычертит tablitsy vedomostey i spetsifikatsiy armatury** muloqat oynasini chaqiring (12.20-rasm).
- Ochilgan muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:
  - **Имя** – **Armirovanie kolonny K-1-5-38** (nom sifatida konstruksiyalangan ustun markasi beriladi);
  - **format lista** – **A3**;
  - Jadvalning o‘ng yuqori burchagi bo‘ylab o‘rnatish uchun zaruriy qiymatlarni kiriting;





12.20–rasm. **Вычертит tablitsy vedomostey i spetsifikatsiy armatury** muloqat oynasi

-  **Nachertit vybrannye tablitsy i avtoprimechaniya** tugmasini bosing.
- So‘ngra  **Zakryt** tugmasini bosing.




➤ **Виды** xizmat oynasida **Сборочные узлы** papkasidagi  K-1-5-38 qatoriga sichqonchanning chap tugmasini bosib va chap tugmani ushlab turib, ustunni armaturalash modelini chizma varog‘iga olib borib joylashtiring (12.22-rasm).

 Agar ustunlarni armaturalash modeli va chizma parallel ko‘rinishda joylashtirilsa, varoqda ustunlarni armaturalash modeli holatini tahrirlash qulaylikka ega bo‘ladi. Buning uchun oynaning nomiga sichqonchanning o‘ng tugmasi bilan bosiladi va kontekstli menyudan **Вертикальная группа** (12.21-rasm) buyrug‘i tanlanadi. Barcha korrektirovkalar ustunni armaturalash modelida yuz berishi lozim. Chizmada chop etishdan oldingi natijalar tasvirlanadi.



12.21–rasm. Oynalarni vertikal holatda guruhlash




12.22–rasm. Ustunlarni armaturalash chizmasi

## 8-bosqich. To'sinlarni bir xillashtirish

### Konstruksiyalashdan diametrlarni chiqarib tashlash

➤ Ba'zi bir diametrdagi armaturalarni konstruksiyalash jarayonidan chiqarib tashlash uchun (konstruksiyalashda qo'llaniladigan diametrlar ro'yxati ma'lum

deb faraz qiling)  -**Armatura** (**Armirovaniye** yorlig'i, **Nastroyki** paneli) tugmasini bosib **Armatura** muloqatli oynasini chaqiring (12.23-rasm).


➤ Ochilgan muloqat oynada quyidagilar kiriting:


- 14, 18, 22 diametrlari uchun **Prodolnaya** ustuniga ikki marta bosning (mos ustunlarda **Net** belgisi paydo bo'ladi);
- So'ng **OK** tugmasi bosiladi;

Арматура								
Набор арматурных стержней по умолчанию (B25/A-III)								
Диаметр	Цвет	Продольная	Поперечная	Анкеровка	Перехлест	max длина	Размер точки	Вес линии
ø6		нет		250	250	11700	3	3
ø8				250	270	11700	3	3
ø10				290	340	11700	3	3
ø12				340	410	11700	3	3
ø14		нет		400	470	11700	3	3
ø16				460	540	11700	3	3
ø18		нет	нет	520	610	11700	4	4
ø20		нет	нет	570	670	11700	4	4
ø22		нет	нет	630	740	11700	4	4
ø25		нет	нет	720	840	11700	4	4
ø28			нет	800	940	11700	5	5
ø32			нет	920	1080	11700	5	5
ø36		нет	нет	1030	1210	11700	6	6
ø40		нет	нет	1150	1350	11700	6	6


12.23 – rasm. **Арматура muloqatli oynasi.**



### [Bir xillashtirilgan guruhlarini yaratish](#)

-  -Unif. balok (Armirovanie yorlig'ida **Osnovnaya armatura** paneli) tugmasini bosib, **Unifikatsiya balok** muloqat oynasini chaqiring.


 *To'sinlar kesim o'lchamlari va uzunligi bo'yicha filtrlanishi mumkin. To'sinlar nazariy armaturalarning yig'indi sarfining kamayishi tartibida saralangan. Har bir to'sin uchun nazariy armaturalarning yig'indi sarfi, yuqori qismdagi armaturalashning maksimal hisobiy yuzasi ikki nuqtada ( $As(1)$  va  $As(2)$ ), quyi qismdagi armaturalash ( $As(3)$ )ning maksimal hisobiy yuzasi va ko'ndalang armaturalar yuzalari chiqariladi.*

- Ochilgan muloqat oynasida **Dlina** ro'yxatidan 8.200 ni tanlang;
- To'sinlar ro'yxatida 1-to'singa belgi o'rnatib;

 *Belgi o'rnatilgan to'sin uchun talab qilingan armaturalash epyurasi ko'rsatiladi. Agar bir necha to'sinlarga belgi o'rnatilsa – egilish epyurasi tasvirlanadi. Egilish epyurasida har bir to'sinning hissasi mos rang bilan ajratib ko'rsatiladi. Egilish epyurasini yaratishda faqat bir xil uzunlikdagi*


to'sinlar kiritiladi. To'sinni armaturalashning batafsil tahlilini amalga oshirish uchun ro'yxatdan to'sinni belgilang va  **-Izuchit rezultaty po secheniyam** tugmasini bosing. Tanlangan to'sin uchun kesimni ko'chirish yoki  **-Dobavit novoe sechenie na epyure** tugmasiga bosib, nazariy armaturalash epyurasida yangi kesim qo'shish mumkin. Shundan so'ng armaturalash epyurasida qiziqtiruvchi nuqtani bosib ko'rsatish zarur.

- To'sinlar ro'yxati ustida sichqonchanning o'ng tugmasi bosing;
- Ochilgan kontekstli menyuda **Makirovat balki** menyu osti oynasini oching va **Markirovat balki, otmechennye flajkami....** buyrug'ini tanlang;
- **Markirovka elementov konstruksii** muloqat oynasida **BM-1** markasi matni kiritiladi (12.24-rasm);
- So'ng **OK** tugmasi bosing;



12.24–rasm. **Markirovka elementov konstruksii** muloqat oynasi

- 2–dan 9–raqamgacha bo'lgan to'sinlarga belgi o'rnating va ular uchun **BM-2** markasini yuqoridagi usul bilan yarating;




12.25 – rasm. **Unifikatsiya balok** muloqat oynasi

### [BM–1 markasi uchun armaturalash modelini yaratish](#)

- Ro‘yxatdagi birinchi to‘sin ustida sichqonchanning o‘ng tugmasini bosib va kontekstli menyudan **Sozdat model armirovaniya** buyrug‘ini tanlang;
- Pastda, muloqat oynaning o‘ng qismida **BM-1** markali bitta bir xillashtirilgan to‘sin paydo bo‘ladi, u shu bir xillashtirilgan guruhga kiruvchi barcha to‘sinlar mustahkamligi bo‘yicha javob beradi. (shuningdek, **Виды** muloqat oynasida **Sborochные узлы** papkasida **BM–1** armaturalash turi va **razreзы** papkasida to‘sinlar uchun bir necha qirqimlar paydo bo‘ladi);
- Haqiqiy va nazariy armaturalash epyuralarini birgalikda tasvirlash uchun o‘ng tarafdagi ro‘yxatda **BM–1** papkasiga va chap tarafdagi ro‘yxatda birinchi to‘singa belgi o‘rnating (12.26 - rasm).



12.26–rasm. To‘sin uchun haqiqiy va nazariy armaturalash epyuralari tasviri

 Marka uchun 3 ta qirgim uchun haqiqiy armaturalash maydoni tasvirlangan hamda **Primechanie** ustunida yuqori va quyi armaturalash uchun burchak va qo‘shimcha sterjenlar diametrlari keltirilgan.

➤ So‘ng **OK** tugmasi bosiladi;


### [Ikki oraliqli to‘sinlar uchun bir xillashtirilgan guruhlarni yaratish](#)



➤ **Dlina** ro‘yxatida 14.550 uzunlikni tanlang.

➤ Yuqorida ko‘rsatilgan usul bilan ikki proletli to‘sinlar uchun bir necha bir xillashtirilgan guruhlarni yarating:

- 1 va 2– to‘sinlar–**BM–3**;
- 3 dan 10–to‘sinlargacha–**BM–4**;
- 11 dan 18–to‘sinlargacha–**BM–5**;

➤ Keyin **OK** tugmasini bosing.

 Ikki oraliqli to‘sinlar uchun armaturalash modelini yaratishda **Slujebnaya informatsiya** oynasida **Prevyshenie transportnoy dliny armatury. Razdelite sterjen na neskolko chastey. ma‘lumoti paydo bo‘ladi. Slujebnaya informatsiya** oynasidagi **Oshibki** qatoriga ikki marta bosib, modeldagi bu

sterjenni belgilang. **Sterjen** uskunalari qatorida  **-Razdelit sterjen** tugmasini bosib va sterjenni bo'lish kerak bo'lgan joyni ko'rsatib – zarur bo'ladigan ustma-ust ulanish bilan sterjen ikki qismga ajratiladi (ko'rsatilgan  **-Armatura** muloqat oynasida). Agarda to'sinlarni konstruksiyalashda uzunligi 11.700 dan ortiq sterjenlardan foydalanilsa, u holda ular pogonaj sifatida spetsifikatsiyada ko'rsatiladi. Spetsifikatsiyada sterjenlarni bo'lish va ularning uzunligini mos ravishda kamaytirish sterjenning haqiqiy uzunligi bo'yicha amalga oshiriladi.



#### **4-amaliy mashg'ulot. To'sinlarni avtomatik konstruksiyalashga tuzatishlar kiritish**

##### **Maqsad va vazifalar:**

- armaturalash modeliga tuzatishlar kiritish;
- spetsifikatsiya bo'yicha joylashuvlarni yangilash;
- to'sinlar qirqimida markalarni yangilash;
- to'sin uchun chizma varag'ini yaratish.


#### **9–bosqich. To'sinlarni avtomatik konstruksiyalashga tuzatishlar kiritish**

##### Armaturalash modeliga tuzatishlar kiritish



- **Виды** muloqat oynasidagi **Сборочные узлы** papkasida  **БМ-1** qatoriga sichqoncha tugmasi bilan ikki marta bosib;
- To'sinlarning bo'ylama qirqimi oynasi bir necha ko'ndalang qirqimlar hamda bo'ylama va ko'ndalang armaturalashning nazariy va haqiqiy epyuralari bilan ochiladi;
- Zaruriyat tug'ilganda  **-Perenos vershiny** (**Армирование** yorlig'i, **Корректировка** paneli) buyrug'idan foydalanib sterjenlar uchun marka-ымосkalar holatiga tuzatishlar kiritib;





Bo'ylama va ko'ndalang armaturalash epyuralari nazorat uchun ekranda tasvirlanadi. Sterjenlar diametri yoki soni o'zgartirilganda haqiqiy armaturalash epyurasida o'zgarishlar bajariladi. Epyuradagi qizil rang hisoblash bo'yicha talab qilingan armaturalash intensivligini qoplash uchun o'rnatilgan armaturalarning yetarli emasligi haqida xabar beradi.

Diametr va tanlangan burchak hamda qo'shimcha sterjenlar soniga tuzatishlar kiritish zaruriyati tug'ilganda -**Balka** (**Armirovanie** yorlig'i, **Osnovnaya armatura** paneli) tugmasini bosing. **Balka** uskunalari qatorida alohida ochiluvchi ro'yxatda yuqori, o'rtacha va quyi sterjenlar soni va diametrlariga tuzatishlar kiritiladi. Shuningdek, ko'ndalang armaturalash uchun zonalar soni va diametrlar tayinlaniladi. Kiritilgan o'zgartirishlardan so'ng




-bo'ylama va -ko'ndalang armaturalar uchun **Pererazmestit** tugmasini bosing.


Balkalar sterjenlari bilan ishlash uskunalaridan chiqish uchun **Esc** tugmasini bosing.

- Pastki armaturalashning **Ø25** burchak sterjenini belgilang.
- **Sterjen** uskunalari qatorida quyidagilarni kiriting:
  - Sterjenning chap va o'ng qismlari uchun  ro'yxatidan **L-lapka** buyrug'ini tanlang;
  - $La = -300$  qiymatni kiriting;
  - Kiritilganlarni tasdiqlash uchun klaviaturada **Enter** tugmasini bosing.
- Tuzatishlar kiritilgan burchak sterjenlarini ko'rinmaydigan qilish uchun **Vizualizatsiya** uskunalari panelida -**Скрыт выделенные** tugmasini bosing.
- Tayanchga yaqin joyda joylashgan pastki armaturalashning yana bir **Ø25** burchak sterjenini belgilang.
- Bu sterjen uchun yuqorida kiritilgan ko'rsatkichlarni kiriting;
- Klaviaturada **Esc** klavishasini bosing.



- Ko‘rinmaydigan qilingan sterjenni ko‘rsatish uchun **Vizualizatsiya** uskunalar panelida  **-Pokazat vse** tugmasini bosing.

### [Spetsifikatsiya bo‘yicha joylashuvlarni yangilash](#)

- **Spetsifikatsiya** (**Armirovanie** yorlig‘i, **Dokumentatsiya** paneli) tugmasini bosib  **-Spetsifikatsiya Armatury Bm-1** muloqat oynasini ekranga chaqiring (12.27–rasm).





Позиция	Обозначение	Наименование	Кол-во	Масса	Униф. Δm, кг	Примечание
1	ГОСТ 5781-82	ø20Ат400С, L=8160	4 шт.	80.5	-	
2	ГОСТ 5781-82	ø20Ат400С, L=5690	4 шт.	56.1	24.4	
ОСп1	ГОСТ 5781-82	ø20Ат400С, L=2100	1 шт.	5.2	-	300мм загнуть
ОСп2	ГОСТ 5781-82	ø20Ат400С, L=2000	1 шт.	4.9	0.2	300мм загнуть
ОСп3	ГОСТ 5781-82	ø25Ат400С, L=8760	4 шт.	135.0	-	300мм загнуть с двух ст...
ОСп4	ГОСТ 5781-82	ø8Ат400С, L=1970	33 шт.	25.7	-	Хомут
ОСп5	ГОСТ 5781-82	ø8Ат400С, L=1290	33 шт.	16.8	-	Хомут
Бм-1		Бетон В25	1.97 м³			
Итого:				324.2		в среднем 164.7 кг/м³

12.27- rasm. **Spetsifikatsiya Armatury Bm-1** muloqat oynasi



- Spetsifikatsiya bo‘yicha barcha joylashuvlarni yangilash uchun **OK** tugmasini bosing.


### [To‘sinlar qirqimida markalarni yangilash](#)

- Balka ko‘ndalang qirqimi tasviriga ikki marta bosiladi. Balka qirqimi tasviriga esa yangi oyna zakladkasi ochiladi;
- Spetsifikatsiya pozitsiyalari bilan mo‘ravishda marka – vyvoskalarni yangilash uchun  **A M** - Markirovka detaley (**Armirovanie** yorlig‘ida **Annotatsii** paneli) tugmasi bosiladi;
- Oyna zakladkasi sarlavhasidagi  **- Zakryt** tugmasi bosiladi;

## 10–bosqich. To‘sin uchun chizma varag‘ini yaratish

### Chizma varag‘ini yaratish

-  Бм-1 qatoriga ikki marta bosiladi. Balka armirlanishi tasviriga ega oyna zakladkasi ochiladi;
-  - **Spetsifikatsiya** (Armirovanie yorlig‘ida **Dokumentatsiya** paneli) tugmasini bosib, **Spetsifikatsiya Armatury Bm-1** (12.27 - rasm) muloqatli oynasi chaqiriladi;
- **Поместить на чертёж...** tugmasi bosib, **Вычертит tablitsy vedomostey i spetsifikatsiy armatury** muloqatli oynasi chaqiriladi (12.28-rasm).



Вычертит таблицы ведомостей и спецификаций арматуры

Балка **Бм-1**

Лист  
 новый  готовый  текущий

Имя :  
Армирование балки Бм-1

Формат : A2  
Основная надпись : Форма 4  
Ориентация :  
 книжная  
 альбомная

Зона чертежа, мм:  
589  
415  
5  
20

Привязка таблиц  
Привязка таблицы - привязка правого верхнего угла таблицы. Высота таблицы - максимальная высота таблицы.

	Таблица спецификаций :	Ведомость деталей :	Ведомость расхода стали :
горизонтальная :	589 мм	394 мм	399 мм
вертикальная :	415 мм	415 мм	68 мм
высота таблицы :	350 мм	410 мм	

создавать       создавать       создавать


Начертить автопримечания

CSV

12.28–rasm. **Вычертит tablitsy vedomostey i spetsifikatsiy armatury** muloqat oynasi

- Ochilgan muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:
  - Varaq nomi - **Armirovanie balki Bm-1** (nom sifatida konstruksiyalangan to‘sin markasi beriladi);


- Varaq formati – **A2**;
  - Jadvalning o‘ng yuqori burchagi uchun bog‘lashning zaruriy qiymatlarini kiriting;
- **✓**-Nachertit vybrannye tablitsy i avtoprimechaniya tugmasini bosing. Chizma varog‘i, jadvallar va avtoizohlar keltirilgan yangi oyna ochiladi.
- So‘ngra muloqat oynasida **✕**-Zakryt tugmasini bosing.
- **Виды** muloqat oynasidagi **Sborochnye uzly** papkasida **БМ-1** qatorini bosing va sichqonchani chap tugmasini ushlayu turgan holda to‘sinni armaturalash modelini varaqqa o‘tkazing (12.29-rasm);



12.29–rasm. To‘sinni armaturalash chizmasi.


- **Виды** muloqat oynasida modelning 3D ko‘rinishini ochish uchun **Общий вид** qatoriga ikki marta bosing.

- **Vizualizatsiya** uskunalari panelidagi  **-Filtr** tugmasini bosib, **Filtrovat elementy** muloqat oynasini ekranga chaqiring (12.30-rasm).



12.30–rasm. **Filtrovat elementy** muloqatli oynasi.

- Ochiq muloqat oynasida quyidagilarni kiritng:
- **Kolonna** va **Balka** qatorlariga belgi o‘rnatng;
  - **Markirovka** ko‘rsatkichi qarshisidagi “...” tugmasini bosib, **Vybrat marku** muloqat oynasini chaqiring (12.31- rasm);
  - Ochiq muloqat oynasida klaviaturadagi **Ctrl** klavishasini bosib ushlab turib, konstruksiyalash bajarilgan ustun va to‘sinlar markalarini tanlang. Ushbu misolda **K-1-5-38** ustun va **Bm-1** to‘sinlar.
  - **Prinyat** tugmasini bosing.



12.31–rasm. **Выбрат марку** muloqat oynasi

➤ **Filtrovat elementy** muloqat oynasida **Выделит** tugmasini bosong.

➤ So‘ngra  - **Закрыт** tugmasini bosong.




*Ustun va to‘sin markalari soni misolda ko‘rsatilgan sonda farqlanishi mumkin. U yaratilgan armaturalash tipi soniga bog‘liq.*

➤ Ustun va to‘sinlarni armaturalashni 3D ko‘rinishida tasvirlash uchun

**Vizualizatsiya** uskunalar panelida  -**Armatura** tugmasini bosong.


➤ Ustunlardan belgilanishlarni olib tashlash uchun klaviaturada **Esc** tugmasini bosong.



➤ Elementlarning ranglar bilan to‘ldirilishini bekor qilish va armaturalarni ustun tanasida ko‘rish uchun **Vizualizatsiya** uskunalar panelidagi  -**Karkas** tugmasini bosong.




➤ **Svoystva** muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:


• **Упрощенные модели – Net.**

➤  -**Применит к об’екту** (klaviaturadagi **Enter** klavishi) tugmasini bosong.

- Armaturalarni diametriga mos ravishdagi ranglar bilan tasvirlash uchun  - **Svet po Ø** (**Armirovaniye** yorlig‘i, **Nastroyki** paneli) tugmasini bosing (12.32–rasm).

 *Har bir diametr uchun ranglarni  -**Armatura** muloqat oynasida sozlash mumkin (**Armirovaniye** yorlig‘i, **Nastroyki** paneli).*

- **Виды** muloqat oynasida  1-й этаж qatoriga ikki marta bosing. Qavat rejasi ko‘rinishiga ega yangi oyna ochiladi.
- Rejada ustunlar armaturasini tasvirlash uchun **Vizualizatsiya** uskunalari panelida  -**Armatura** tugmasini bosing.
- **Svoystva** muloqat oynasida quyidagilarni kiriting:
- **Упрощенные модели – Net.**
- So‘ngra  -**Применит к объекту** (klaviaturadagi **Enter** klavishi) tugmasini bosing.



12.32 – rasm. Diametrga ko‘ra rangli ustun armaturalari

## **5 - amaliy mashg'ulot. SAPFIR-JBK tizimi yordamida temirbeton diafragmani loyihalash masalasini yaratish**

### **Maqad va vazifalar:**

- difragmaga armatura tanlashni amalga oshirishda minimal zaruriy ma'lumotlarni tasvirlash;
- armaturalash natijalarini import qilish;
- diafragmani avtomatik rejimda loyihalash;
- diafragmada sterjenlarni avtomatik terib qo'yishni tahrirlash texnologiyasini ko'rsatib berish.


### **Dastlabki ma'lumotlar:**

Ushbu masalani bajarish uchun modelning geometriyasi yaratilgan **8\_diafragma** faylini ochish kerak. Dastur o'rnatganda barcha fayllar **C:\ProgramData\SAPFIR\Sapfir2017\Samples** papkasiga o'rnatiladi. Bu ishni bajarish uchun dasturni ishga tushiring va **Samples** papkasidan **8\_diafragma** faylini oching.

### **1-bosqich. Diafragmani armaturalash hisobini bajarish va loyihalash uchun minimal zaruriy ma'lumotlar**


Diafragmani loyihalash uchun model quydagilar talabga mos kelishi kerak:


1. SAPFIR tizimidagi yaratilgan modelda devorlar ishtirok etishi kerak;
2. Devorning yuk ko'taruvchi materiali (beton) uchun interpretatsiya (talqin etilishi) qatorida **Nesumiy konstruksiya** xususiyati tanlangan bo'lishi kerak.
3. Devor materiali kateqoriyasida **Jelezobeton** (material oynasida sozlanadi) tanlangan bo'lishi kerak (13.1-rasm).
4. LIRA-SAPR tizimidagi devor plastinalariga material tayinlangan bo'lishi lozim.
5. Devor plastinalariga armatura tanlangan bo'lishi kerak.




13.1-rasm: Difragmani armaturalash hisobini bajarish va loyihalash uchun minimal zaruriy ma'lumotlar

## 2-bosqich. Armaturalash natijalarini import qilish

➤  **-Pokazat** tugmasini bosib armaturalash natijalarini yuklang.

 Agar fayl bilan hech qanday natijalar avvaldan bog'lanmagan bo'lsa, u holda **Vybor fayla** muloqat oynasi ochiladi. Ushbu oynada natijalar faylini tanlash va **Otkryt** tugmasini bosish kerak. Dastur o'rnatilganda natijalar fayli **C:\ProgramData\SAPFIR\Sapfir2017\Samples** papkasi joylashgan bo'ladi. **PK LIRA-SAPR** tizimida shakllantirilgan natijalar faylini (\*.asp) modelning dastlabki fayli (\*.spf) joylashgan papkada, aynan shu nom bilansaqlash tavsiya etiladi (13.2-rasm).






13.2-rasm. Diafragmani armaturalash natijalarini import qilish.

